LOTINCHA ATAMALARNING XALQARO MIQYOSDA QO'LLANILISH SABABLARI

Mualliflar: Qodirova Dilnura Ergashjon qizi
TDTU stomatologiya fakultet 1-kurs talabasi
***E-mail**: dilnura7734@gmail.com*
Tel: +998906717772
Mualliflar: Ibragimov Zuhriddin Mansur o'g'li
TDTU stomatologiya fakultet 1-kurs talabasi
***E-mail**: doktoribragimov77@gmail.com*
Tel: +998904363236
Mualliflar: Buronov Umidjon Abdurafi o'g'li
TDTU stomatologiya fakultet 1-kurs talabasi
***E-mail**: umidjonburonov3@gmail.com*
Tel: +998772323351
***Ilmiy rahbar**: Sayfullayeva Lola Sobitovna*
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Lotin tili va xorijiy tillar kafedrasi katta o''qituvchisi
E-mail: lolasayfullayeva133@gmail.com
Tel: +998909976700
Musurmonov Jamoliddin Faxriddin o'g'li
TDTU Davolash ishi fakulteti 2-kurs talabasi,
***E-mail**: jamoliddin216624@gmail.com*
Tel:+998941120624

Annotatsiya: *bu tezis zamonaviy tibbiyotda lotin tilining ahamiyatini, uning tarixiy barqarorligini va xalqaro ilmiy terminologiyadagi o'rnini o'rganadi. Lotin tili tibbiyoyda aniqlik, izchillik va neytralik tamoyillari orqali global muloqotning universal vositasi sifatida saqlanib qolganligi tahlil qilingan. shuningdek, zamonaviy tibbiyotning sun'iy intellekt, robotlashtirilgan jarrohlik va elektron diagnostika tizimlari bilan rivojlanayotgan davrida ham lotin tilining o'zgarmas ilmiy kodeks sifatida saqlanib qolishini ta'kidlaydi. Shu tariqa lotin tili tibbiyotda nafaqat tarixiy meros, balki bugungi kunning ilmiy tayanchi va kelajak texnologiyalari uchun universal til ekanligi tasdiqlanadi.*

***Kalit so'zlar**: Lotin tili, ilmiy terminologiya, robotlashtirilgan jarrohlik, universal til, tibbiyot.*

Annotation:*This thesis explores the significance of the Latin language in modern medicine, its historical stability, and its role in international scientific terminology. Latin has remained a universal tool of global medical communication due to its*

principles of accuracy, consistency, and neutrality. The study also emphasizes that even in the era of Artificial Intelligence, robotic surgery, and electronic diagnostic systems, Latin continues to function as an unchanging scientific code. Thus, Latin is confirmed to be not only a historical heritage but also a scientific foundation of contemporary medicine and a universal language for future technologies.

Keywords: *Latin language, scientific terminology, robotic surgery, universal language, medicine.*

Аннотация:*В данной тезисной работе изучается значение латинского языка в современной медицине, его историческая устойчивость и роль в международной научной терминологии. Латинский язык сохранился как универсальное средство глобальной профессиональной коммуникации благодаря принципам точности, последовательности и нейтральности. Кроме того, подчёркивается, что даже в эпоху искусственного интеллекта, роботизированной хирургии и электронных диагностических систем латинский язык остаётся неизменным научным кодом. Таким образом, латинский язык подтверждает свой статус не только как исторического наследия, но и как научной основы современной медицины и универсального языка будущих технологий.*

Ключевые слова: *латинский язык, научная терминология, роботизированная хирургия, универсальный язык, медицина.*

Kirish

Lotin tili — qadim zamonlardan beri ilm va tibbiyot sohasida ishlatiladigan “o‘lmagan til” sifatida tanilgan. Garchi bu tilni bir necha yuz yil avval so‘zlashishdan to‘xtagan bo‘lsa-da, tibbiyotda u hanuz markaziy o‘rin egallaydi. Siz shifokor yoki talabami bo‘lmang, klinik kartani ko‘rib chiqsangiz, turli xil lotin atama va iboralarni ko‘rasiz. Oddiy odamlar uchun bu tushunarsiz, aslida esa lotin tili shifokorlar uchun kod vazifasini bajaradi. Savol tug‘iladi: Nega bu til o‘lik bo‘lishiga qaramay, bugungi tibbiyotda tirik va ishlatilmoqda? Shu sirni ochish uchun tarix, ilm-fan, va zamonaviy tibbiy amaliyotga nazar solish zarur.

Lotin tilining tarixiy asoslari tibbiyotda

Tibbiyot mustaqil fan sifatida shakllana boshlagan antik davrda Rim imperiyasi dunyoning eng kuchli siyosiy va madaniy markazi bo‘lgan. Imperiya qanchalik kengaysa, lotin tili ham shunchalik tarqalgan.

Shu paytda:

1.qonunlar lotin tilida yozildi;

2.davlat boshqaruvi lotin tilida yuritildi;

3.ilmiy maktablar lotin tilida dars o‘tdi;

4.shifokorlar yozma asarlarini lotincha qoldirdi.

Tibbiyotda Lotin tili:

1.so‘z yasash imkoniyatlari keng bo‘lgani,
2.atamalarni aniq, qisqa va tushunarli shaklda ifodalash qobiliyati,
3.grammatik barqarorligi,
4.va ilmiy muhitda ustuvor mavqega ega bo‘lganligi
tufayli tibbiyot uchun eng qulay asos bo‘lib xizmat qildi.

Shu bois fan endi shakllanayotgan, poydevori qo‘yilayotgan o‘sha tarixiy pallada lotin tili dominant til sifatida tanlandi. Bu tanlov tasodif emas — ilmni mustahkam, o‘zgarmas va universal qilib qurish uchun aynan lotin tili eng mos variant edi.

Natijada, tibbiyot ilmi tug‘ilib o‘sayotgan muhitning rasmiy, ilmiy tili lotin bo‘lib qoldi. Rim qulagach ham, lotin til:Yevropa universitetlarining rasmiy tili bo‘lib qoldi,ilmiy kitoblar, reseptlar, tashxislar lotincha yozildi,har bir shifokor lotin tilini bilishi shart bo‘ldi. Buning natijasida, lotin tili tibbiyot sohasiga shunchalik singib ketdiki, uni boshqa tilda qayta qurish amalda imkonsiz bo‘lib qoldi, keyingi avlod shifokorlari ham lotinchani o’rgandi va uni tibbiyotdagi ahamiyatini kengaytirdi, yangiliklarni aynan shu tilda kashf qildi Lotin tilining tibbiyotda hanuz ustun bo‘lib kelayotgan sabablaridan yana biri — har bir so‘zning bitta aniq ma’noga ega bo‘lishi va boshqa ma’nolari takrorlamasligidir. Bu tilda chalkashlikka, ikki xil talqinga, noto‘g‘ri tushunishga o‘rin yo‘q. Masalan, ko‘plab tirik tillarda bir so‘z bir necha ma’noni anglatishi mumkin, kontekst bo‘lmasa adashish oson. Lotin tilida esa aksincha: bir so‘z — bir ma’no tamoyili qat’iy saqlanadi.

Aynan mana shu aniqlik tibbiyotda nihoyatda muhim. Chunki birgina xato talqin dorining noto‘g‘ri buyurilishiga, tashxisning adashishiga yoki butun jarayonning izdan chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Lotin tili esa bu muammoni bartaraf etadi: terminlar universal, bir xil ma’noga ega va butun dunyo shifokorlariga tushunarli. Bu esa lotin tilining tibbiyot olamidagi o‘ziga xos, takrorlanmas xususiyati bo‘lib, uni hanuzgacha “tirik” saqlab turgan asosiy omillardan biridir.

Lotin tilining barqarorligi va universal qiymati

Lotin tili “o‘lik til” va aynan shu narsa uni ilmdagi eng barqaror va ishonchli tilga aylantirgan. Tiriklikdan chiqqan til — o‘zgarishdan ham chiqadi. Ya’ni, unda yangi slenglar, shevalar, moda so‘zlar yoki zamonaviy “trend”lar paydo bo‘lmaydi. so‘zlar hech qachon o‘z ma’nosini yo‘qotmagan, bu esa tibbiyot terminologiyasida juda muhim. Agar ushbu so‘zlar har bir mamlakatda o‘z tilida bo‘lganda, global hamkorlik va ilmiy maqolalarda chalkashlik yuzaga kelardi. Shu sababli lotin tili xalqaro ilmiy til sifatida xizmat qiladi. Shifokor bu so‘zlarni ko‘rgan zahoti aniq tushunadi, boshqa tilga tarjima qilish shart emas. Shu sababli lotin tili tibbiyotda “tirik til” bo‘lib qolmoqda, chunki u ma’lumotni o‘zgarmas, aniq va universal yetkazadi.

Lotin tilining zamonaviy tibbiyotda ishlatilish usullari

Klinik hujjatlar

Shifokorlar bemorning kartasida tashxisni lotincha yozadi: *Status praesens, Anamnesis morbi, Diagnosis differentialis* Bu hujjatlarni boshqa mamlakatdagi shifokor ham tez tushunadi.

Retseptlar va dorilar

Retseptlarda ko‘p uchraydigan lotincha qisqartmalar:

i.m. — mushak ichiga *(intramuscularis)*

p.o. — og‘iz orqali *(per os)*

statim — darhol

Oddiy dorixona mijozlari bu iboralarni ko‘rmaydi, ammo shifokorlar uchun hayotiy ahamiyatga ega. Bundan tashqari tashhislar qo’yishda (*ICD-10 va ICD-11* tizimlarida) ko‘plab kasalliklar lotincha nom bilan ifodalanadi. Bu esa butun dunyo shifokorlari o‘rtasida bir xil tilda tushunishni ta’minlaydi.

Lotin tilining sirli jozibasi

Lotin tili faqat tibbiyotda emas, boshqa fanlarda ham ishlatiladi: huquq, biologiya, astronomiya. Astronomiyada katta xavf yoki klinik xato xavfi yo‘q, shuning uchun “mutlaq aniqlik” talabi tibbiyotchalik kuchli emas.

Ammo tibbiyotda uning jozibasi ayniqsa kuchli.

1.Har bir atama aniq va qisqa bo‘lib, chalkashlikka yo‘l qo‘ymaydi.

2.Klinik amaliyotda xatolarning oldini oladi.

Shifokor uchun noto‘g‘ri so‘z yirik xatolarga olib kelishi mumkin. Shu sababli lotin tili hayotni saqlovchi kod vazifasini ham bajaradi.

Lotin tili va zamonaviy texnologiyalar

Bugungi kunda tibbiyot raqamli va globallashgan. Elektron kartalar, ilmiy maqolalar — barchasi lotin tili bilan bog‘langan. Texnologiyalar qanchalik rivojlanmasin, ularning asosida ishlatiladigan terminlar hanuz lotin tiliga tayanadi. Buning sababi shundaki, texnologiya o‘zgaradi, lekin terminologiya aniq bo‘lishi kerak, chunki har bir atama o‘z ma’nosiga ega bo‘lmasa, global hamkorlik izdan chiqadi

Internetda, onlayn ma’lumotlar bazalarida ham lotincha atamalar ishlatiladi, bu esa shuni anglatadiki, lotin tili texnologiya bilan raqobat qilmayapti — aksincha, texnologiyaga tayanch bo‘lib xizmat qilada.

Xulosa

Lotin tili tibbiyotning yashirin, ammo eng muhim siri hisoblanadi.

Barqarorlik — terminlar asrlar davomida o‘zgarmaydi

Lotin tili bugungi kunda gaplashilmaydigan til bo‘lsa-da, u ilm-fan, ayniqsa tibbiyot uchun hanuz eng barqaror va ishonchli tayanch bo‘lib qolmoqda. Tibbiyotning robotlashtirilgan jarrohlikka o‘tgan, sun’iy intellekt tashxis qo‘yadigan davrida ham lotin tilidan voz kechilmayotgani bejiz emas. Chunki lotin — aniqlik, barqarorlik, neytrallik va universallik tamoyillariga eng mos til.Tibbiyotda xatoga o‘rin yo‘q, ilmiy

atamalar esa dunyoning istalgan burchagida bir xil tushunilishi kerak. Lotin tili nafaqat tarixiy meros, balki bugungi global tibbiyotning ichki mexanizmi, bilimlar uzluksizligining asosi va kelajak texnologiyalarining ham universal kodi sifatida yashab kelmoqda. Demak, lotin tili — aslida “o‘lib qolgan til” emas. U tirikdan ham tirikroq: ilm-fanning yuragi bo‘lgan aniqlik va ishonchlilikni asrab turuvchi abadiy tildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Musurmonov.J.F & Sayfullayeva.L.S,. (2025). FARMATSEVTIK ATAMASHUNOSLIK. Toshkent: TDTU https://doi.org/10.5281/zenodo.15289181
2. L.S. Sayfullayeva CHET TILLARI, LOTIN TILI VA TERMINOLOGIYA ASOSLARINI O ‘QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI
3. L.S. Sayfullayeva Lotin tilini o ‘qitish jarayonida axborot texnologiyalarining o ‘rni
4. Musurmonov.J.F(2024).Lotin tilining zamonaviy tibbiy yozuvdagi roli va uning xalqaro standartlashuvidagi ahamiyati. Toshkent: TDTU https://universalconference.us/universalconference/index.php/icmse/article/view/4518
5. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi o‘quv qo‘llanmalari
6. .M.Jo’rayev “Lotin tili va tibbiy terminologiya” darsligi
7. Sh. Ergasheva — Tibbiyot uchun lotin tili asoslari
8. Oxford Handbook of Medical Terminology
9. Musurmonov J. ZAMONAVIY TIBBIYOTDA KASALLIK OMLARINING LOTIN TILIDAGI TUZILISHI VA KLINIK DIAGNOSTIKADAGI AHAMIYAT